

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

AMALIY FILOLOGIYA
MASALALARI

2025 Vol. 1 (5)

www.aphil.tsuull.uz

Bosh muharrir:

Saodat Muhamedova

Mas'ul kotib:

Yekaterina Shirinova

Tahrir kengashi

Aynur O'zjan (Turkiya), Baydemir Husayn (Turkiya), Alfiya Yusupova (Rossiya), Luiza Samsitova (Rossiya), Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Merveri Ismailova (Ozarbayjon), Abdulhay Sobirov, Manzura Abjalova, Xurshida Kadirova, Shoira Isayeva, Nargiza Musulmonova, Munira Shodmonova, Oqila Turaqulova, Iroda Azimova, Dilafruz Xidoyatova, Dilrabo Elova, Elyor Xonnazarov, Xasan Akramov, Ra'no Azizova, Azimjon Davronov, Nasiba Jo'raqulova.

Jurnal haqida ma'lumot

“O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi “O'zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, unda professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning amaliy tilshunoslik, amaliy adabiyotshunoslik, kompyuter lingvistikasi, o'zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o'qitish, noshirlik ishi, qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi sohalarga oid tadqiqotlari nashr qilinadi.

Jurnal ilovasi bir yilda to'rt marta chop etiladi.

O'zbek, rus va ingliz tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin. “O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari” seriyasi 2022-yildan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,

Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: aphil@tsuull.uz

Website: <http://www.aphil.tsuull.uz>

MUNDARIJA

AMALIY FILOLOGIYA

Мирвари Исмайлова

Научная концепция о происхождении тюрков в Передней Азии ...5

Nasiba Jo'raqulova

Xalq dostonlarida turkiy obraz tasviri14

Sohiba Gazibekova

Diniy tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklarning poetik imkoniyatlari (Xayriddin Sulton asarlari misolida)25

Umida Abdullayeva

Badiiylik modusi - she'riyatdagи modifikatsion usul31

QIYOSIY TILSHUNOSLIK

Зульфия Ишкильдина, Луиза Самситова

Корневая морфема в русском и башкирском языках38

Xurshida Kadirova, Xankishi Məmmədov

"Gözəllik" komponentləri ilə paremioloji birliklərin iks-femik semantikası49

Xurshida Kadirova, Odina Uralova

Turkiy va turk xalq maqollarining lingvistik tadqiqi59

Nargiza Aytniyazova

O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi paremiyalarning lingvokulturologik aspekti75

O'ZBEK TILINI XORIJY TIL SIFATIDA O'QITISH

Dilora Bahronova

Xorijliklarga o'zbek tilini o'qitishda til va madaniyat integratsiyasi ...84

LINGVOKULTUROLOGIYA

Shakhzoda Khayrullaeva

A linguacultural analysis of emotions through metaphors (in english and uzbek: anger, fear, love, and pride)90

PSIXOLINGVISTIKA

Dildora Salimova

Psixolingvistikada nutqni idrok etish masalasi102

SOTSIOLINGVISTIKA

Gulbahor Iskandarova, Yekaterina Shirinova

Bolalarda gender identifikasiyasining lisoniy jihatdan xoslanishi ...111

Lobar Rahimqulova	
Ijtimoiy tarmoqlardagi konfliktli yozishmalarda yosh xususiyatini ifodalovchi lingvistik va paralingvistik birliklar	119
 TIL TA'LIMI NAZARIYASI VA AMALIYOTI	
Gulshan Asilova, Fatma Açık	
Ona tili ta'limida o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun matnlarni tanlash tamoyillari	127
 Турсуной Юсупова	
Проблема подготовки обучающихся к текстообразительной деятельности путем выполнения грамматических заданий	139
 Мунира Шодмонова	
Развитие критического мышления у студентов как педагогическая проблема	150
 Yekaterina Shirinova, Gulbahor Iskandarova	
Til ta'limiga antroposentrik yondashuv masalasiga doir	165

TIL TA'LIMI NAZARIYASI VA AMALIYOTI

ONA TILI TA'LIMIDA O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH UCHUN MATNLARNI TANLASH TAMOYILLARI

Gulshan Asilova¹
Fatma Açık²

Annotations

Zamonaviy jamiyat hayotida o'qib tushunish bilish va muloqot vositasi sifatida katta ahamiyatga ega. Shuningdek, eshitish kanallariga qaraganda ko'rish kanallarining o'tkazish layoqati birmuncha yuqori ekanligi ma'lum. Shu bois bosma matn ko'rinishida tavsiya qilingan axborot eshitilgan axborotdan ko'ra ishonchli va samarali deb qabul qilinadi hamda unga kam xarajat hamda kuch sarflanadi. Bu ona tili ta'limida o'qishga o'rgatish vazifasining muhimligini ko'rsatadi. Bugungi kunda o'qib tushunish ko'nikma-malakalariga qo'yilayotgan talablar, xususan, o'qish va matnni tushunish savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro PISA va PIRLS tadqiqotlarida mamlakatimiz o'quvchiarning ishtiroki natijalari ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishda matnlarning o'rni va ahamiyatini ta'kidlaydi. Maqolada o'qish uchun matnlarni tanlashda hisobga olinadigan zarur jihatlar hamda jahon tajribasidan foydalanish masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: *o'qish, o'qib tushunish, o'qish turlari, matn, intensiv o'qish, ekstensiv o'qish.*

KIRISH

O'qib tushunish – matnning grafika yordamida ifodalangan mazmunini muloqot vazifasiga muvofiq qabul qilish va qayta ishlab, mazmunan anglashga doir ko'nikma. O'qish obyekti sifatida

¹ Asilova Gulshan Asadovna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

E-mail: gulshanasilova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8462-7120

² Fatma Açık – filologiya fanlari doktori, professor, Gazi universiteti (Turkiya).

E-mail: fatmaacik1@gazi.edu.tr

ORCID ID: 0000-0002-3972-0799

Iqtibos uchun: Asilova, G.; Açık, F. 2025. "Ona tili ta'limida o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun matnlarni tanlash tamoyillari". *O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari*. 1 (5): 127-138.

DOI: 10.52773/tsuull.aphil.2025.1 (5)/CFDJ5672

faqat yozma matn tushunilmaydi. Rasmlar, chizmalar, jadvallar, grafiklar, diagrammalar, piktogrammalar, infografikalarda aks ettirilgan axborot, ya'ni vizual axborotni tushunish, shuningdek, ovozlashtirilmagan videomateriallarni ko'rib, ularda ifodalangan g'oyalar va fikrlarni anglash ham o'qib tushunish ko'nikmasining zarur jihatlari hisoblanadi.

O'qishdan maqsad vizual axborotni qabul qilish va qayta ishslashdan iborat. O'qishga o'rgatish vazifasi tinglab tushunishga o'rgatish va og'zaki nutqni o'stirishdan ko'ra osonroq hisoblanadi, chunki o'qiyotgan odamda o'zi uchun maqbul tezlikni tanlash, matnning qiyin joylariga qaytish imkoniyati mavjud bo'ladi. Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, ko'rish qobiliyati obrazlarni xotirada eshitish qobiliyatiga nisbatan mustahkamroq saqlab qoladi.

Matn o'quv materialining asosiy birligi bo'lib, uning quyidagi belgilari farqlanadi:

- bog'langanligi (uyg'unligi);
- mantiqiy uzviyligi yoki yaxlitliligi;
- uzlusizligi;
- tugallanganligi;
- pragmatik maqsadi mavjudligi [Serova 2009].

Bu jihatlar o'quv matnlarini boshqa turdag'i materiallardan farqlashga yordam beradi hamda maktab darsliklarini yaratish jarayonida matn tanlashning dastlabki mezonlari sifatida qo'llanadi.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda ona tili darsliklari mualliflari hamda o'qituvchilar uchun qiyinchilik tug'diradigan muammolardan biri o'qish uchun matnlarni tuzish yoki tanlash, moslashtirish muammosidir. O'quvchilarning yoshi, qiziqishlarini hisobga olish tamoyili o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi matnlarning mazmuniga va lingvistik jihatlariga qo'yiladigan talablar bilan bog'liq.

Matn mazmuniga quyidagi talablar qo'yiladi:

1) matn o'quvchilar uchun qiziqarli hamda ularning yoshiga mos bo'lishi kerak;

2) matnda faqat o'quvchilarga ma'lum (tushunarli) voqelik aks etgan bo'lishi lozim;

3) og'zaki nutqni o'stirishda samarali hisoblanadigan sujetli matnlardan ko'proq foydalanish maqsadga muvofiq.

Matnning lingvistik jihatlariga quyidagi talablar qo'yiladi:

1) matnlarni tuzishda faqat so'zlarning miqdoriga emas, semantikasiga ham e'tibor qaratish zarur;

2) kichik sinflarda matnning 90–95%ini, o'rta sinflarda esa 65–70%ini o'quvchilarga tanish so'z va iboralar tashkil qilishi tavsiya etiladi;

3) matnda mazmunini kontekstdan anglash mumkin bo'lgan notanish so'zlarning mavjudligi muhim;

4) intensiv o'qishga mo'ljallangan matnlarga yangi lingvistik material, ekstensiv o'qishga mo'ljallangan matnlarga esa faqat o'rganilgan va tanish lingvistik materialni kiritish; uyda o'qiladigan matnlar intensiv o'qish matnlaridan soddarоq bo'lishi kerak.

S.I. Sharapova o'quv matnini tanlash uchun quyidagi mezonlarini belgilaydi:

- matnning vaziyatliligi, ya'ni matndagi ma'lumotlardan muloqotning o'xshash vaziyatlarini modellashtirishda foydalanish mumkinligi;

- matnda ko'rgazmalilik, ya'ni matnda ilmiy tushunchalar yoki kategoriyalarning o'quvchilarga tushunarli tarzda taqdim etilishi;

- matnning axborot, ijtimoiy-madaniy, mamlakatshunoslik nuqtayi nazaridan ma'rifiy ahamiyatga egaligi;

- materialning nisbiy, mazmunan soddaligi, o'quvchiga matnni tushunish imkonini berishi;

- matnning metodik qiymatga egaligi, ya'ni til birliklari: terminlar, professionalizmlar, nutq qoliplari va tuzilmalar bilan boyitilganligi;

- matnning lingvistik qiymati, ya'ni matn fragmentida ilmiy matnning assosiy belgilari: kommunikativ va ma'noviy yaxlitlik, ma'noviy va tuzilmaviy bog'lanish, mantiqiy tugallanganlik mavjudligi [Sharapova 2009].

O'qish uchun matnlarni tanlashda qaysi jihatlarga e'tibor berish muhim?

Matnlarni tanlashda tematik yondashuv. Matnlar Davlat ta'lim standartlari asosida tuzilgan o'quv dasturida har bir sinf uchun belgilangan mavzulariga muvofiq tanlanadi yoki tuziladi. Odatta, umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun quyidagi mavzular doirasida matnlar yaratiladi: milliy istiqlol va jamiyat, milliy urf-odatlar va madaniyat, shaxsning huquq va erkinliklari, insoniy fazilatlar, muloqot, shaxsiy rivojlanish, o'qish madaniyati, fan va texnika, sog'liqni saqlash va sport, vaqt va makon, hissiyorlar, tabiat va koinot, san'at, fuqarolik, bolalar dunyosi va h.k.

Matnlarning miqdori. O'quv dasturida belgilangan har bir mavzu bo'yicha nechta matn o'rganilishi kerak, degan savol

tadqiqotchilar, darslik mualliflari va o'qituvchilarni qiziqtiradi. Jahon tajribasidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinflarda o'qish va savodxonlik ta'limi tugallanganidan so'ng, darsliklarda ikkinchi sinfdan to'qqizinchi sinfgacha har bir mavzu bo'yicha uchta o'qish, bitta tinglash uchun va ko'rish uchun (visual) matn, bitta adabiy o'qish matni bo'lishi maqsadga muvofiq.

Matn turlari. Umumta'lim maktablarining o'quv dasturida matnlarning to'rtta asosiy turi ko'rsatiladi: tasviriy matn, hikoya matn, xabar matni va muhokama matn. Adabiy o'qish matnlari sifatida esa nasriy va she'riy matnlar qo'llanadi. Darslikdagi har bir mavzuga kiritiladigan to'rtta matnning turlari mavzu talablariga muvofiq darslik muallifining xohishiga ko'ra tanlanadi. Boshqa tomondan, darslikda matnlarning yuqorida ko'rsatilgan turlarini baravar taqsimlashni ta'minlash juda muhim. Har bir sarlavha ostidagi kichik sarlavhalar (ruknlar) o'quv dasturdagi mavzularga muvofiq ravishda darslikda qo'llanishi kerak.

Matnlarni qisqartirish yoki moslashtirish. Shuni ta'kidlash muhimki, darslik uchun yoki o'quv mashg'uloti uchun matn tanlaganda uni asl manbadan olib, darslikka o'tkazish, ikkilamchi manbalarga ustunlik bermaslik kerak. Darslikka roman va qissalardan parchalar kiritilganda, asardan olingan qismdan tashqari bo'limlarning qisqacha mazmuni berilishi va olingan parchaning qaysi qismida ekanligi qisqacha tushuntirilishi metodik jihatdan zarur hisoblanadi. Afsuski, amalda darslik mualliflari bu jihatlarga e'tibor bermaydilar.

Shuningdek, yirik matnlarga xos semantik yaxlitlikka ega bo'lgan latifalar va xotiralar kabi qismlar darslikka mustaqil matn sifatida kiritilishi mumkin. Matnning aslida mavjud bo'lgan jargonlar, vulgarizmlar, zo'ravonlik, tajovuzkorlik kabi salbiy hislarni uyg'otishi mumkin bo'lgan, ta'lim maqsadlariga kirmaydigan so'zlar hamda iboralar matn mazmunining yaxlitligini buzmaydigan tarzda undan olib tashlanadi.

Shu bilan birga, jahon adabiyotidan tarjima qilingan matnlar aniq va sifatli tarjimalardan olinishi zarurligini ta'kidlash lozim. Muallifning uslubi va o'zbek tilining davrlarga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan imlo tafovutlari tuzatilmasligi, xato deb hisoblanmasligi va ta'lim maqsadida ishlatilishi lozim.

Matn mualliflari. Ona tili darsligi uchun matn tanlashda keng ommaga tanish mualliflar asarlariga ustunlik berish tavsiya etiladi. Biroq, qayta-qayta bir muallifning asarlaridan parchalar berish joiz emas. Bitta darslikka bir muallifning ko'pi bilan ikkita

matni kiritilishi mumkin. Shu bilan birga, darslik muallifi tegishli mavzularga oid gazeta yangiliklari, reklama, petitsiya, bayonnomma, referat, tarmoq kundaligi (blog), ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar kabi matnlardan cheklanmagan holda foydalanishi mumkin. Yozuvchi va shoirlarning tarjimayi hollarini berishda esa faqat shaxsning adabiy jihatini birinchi o'ringa chiqarish kerak.

Matn xususiyatlari. O'qish uchun matn tanlashda jamiyatda qabul qilingan axloqiy-madaniy me'yorlarni aks ettirgan va adabiy-estetik xususiyatga ega bo'lgan asarlarga ustunlik berish taxsiya qilinadi. Faqat 1-sinfda darslik uchun maxsus yozilgan matnlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Qaysi matnlardan qanday maqsadda foydalanish mumkin? Romanlar, qisqa hikoyalar, xotiralar kabi voqealarga asoslangan matn turlaridan taxmin qilish yoki xulosa chiqarib o'qish uchun; ommabop maqola, tarjimayi hol, tanqid, memuar, sayohatnomma, qo'llanma, ro'yxat, eskiz, diagramma kabi ma'lumot beruvchi matn turlaridan savollar berish, belgilash va eslatma olish maqsadida o'qish uchun; maqola, insho, intervyu va ijtimoiy media xabarları kabi matn turlaridan muhokama qilish maqsadida o'qish uchun foydalanish kerak.

Biografiya, maqola, sayohatnomma, ariza, o'quvchilar uchun mo'ljallangan ma'lumotlardan iboratyangiliklar kabi matn turlaridan uyda (ekstensiv) o'qish yoki fakultativ o'qishda foydalanish mumkin.

Ijtimoiy media xabarları, elektron pochta, broshuralar va plakatlar kabi matn turlaridan tanishish uchun o'qish usuli-texnikasi; she'r, insho, hangoma, maqola kabi mazmunini tushunish talab qilinadigan matn turlaridan tushunib o'qish texnikasi; ertak/afsona/doston, hajviy kitob, multfilm, risola, plakat, eskiz, diagramma, infografika, jadval kabi matn turlaridan vizual o'qish usuli-texnikasi; qo'shiqlar/xalq qo'shiqlari/alla kabi matn turlaridan ijodiy o'qish usuli-texnikasi; topishmoqlar, tez aytishlar, to'rtliklar kabi matnlardan esa taxmin qilib o'qish usuli-texnikasini qo'llab foydalanish kerak.

Dunyo miqyosida matnlarga qo'yiladigan talablar

Matnning qiyinligi. Turli mamlakatlarda ona tili ta'limalda matndan foydalanish maqsadlari o'rganilganda matnning qiyinlik darajasi bilan bog'liq umumiylar qarashlar borligi ko'rindi. Masalan, Buyuk Britaniyada ona tili ta'limalda o'quvchilarda matnlar bilan ishslash orqali o'qishni sevish va qadrlash hissini rivojlantirish hamda o'quvchilarni murakkab matnlar va materiallarni mustaqil ravishda o'qiy olish darajasiga yetkazish maqsad qilingan [NCE 2014].

Xuddi shunday, Finlyandiyada ham quyi sinflarda qiyinlik darajasi past bo'lgan matnlardan boshlab o'quvchilarning yoshi o'sib borishi bilan qiyinlik darajasi yuqori bo'lgan matnlardan foydalanishga o'tish tavsiya etiladi. O'quvchilar boshlang'ich sinflarni tugatganlaridan so'ng samarali o'qishlari uchun ularda yetarli darajada savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish kerak [Tainio 2012].

AQShda ona tili ta'limi dasturida matn tanlash mezonlarining asosiy maqsadi o'rta maktabni tugatgan o'quvchilarni universitetda yoki kasbiy hayotda qiyinligi yuqori bo'lgan matnlarni o'qib tushunish darajasiga tayyorlashdan iborat [Coleman, Pimentel 2012].

Ko'rinib turibdiki, ushbu maqsadlar o'quvchilarda qiyinlik darajasi yuqori bo'lgan matnlarni mustaqil ravishda o'rganish malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Buyuk Britaniyada ona tili ta'limi dasturida o'quvchilarda tobora qiyinlashib boradigan matnlarni tushunish ko'nikmalari quyidagi usullar yordamida rivojlantiriladi [NCE-a2 2014]:

- yangi so'zlarni o'rganish, ularni ma'lum so'zlar bilan bog'lash, kontekst va lug'atlar yordamida tushunish;
- matndagi dalillarga murojaat qilish va xulosalar chiqarish;
- matnning maqsadi, maqsadli auditoriyasi va kontekstini bilish hamda ushbu ma'lumotdan tushunishni rag'batlantirishda foydalanish;
- o'qilayotgan materialni tanqidiy o'qishni tekshirish uchun uning mazmunli ekanligiga ishonch hosil qilish;
- tilning ma'noviy jihatlari, jumladan, majoziy til, so'z tanlash, grammatika, matn tuzilishi va tashkiliy xususiyatlarning qanday taqdim etilishini bilish;
- bir qator she'riy asarlar tuzilishini o'rganish va ularning joylashushi, sujeti hamda xarakteristikasi, ularning ta'sirini anglash uchun qanday qo'llashni tushunish;
- dramaturglar ijodini sahna ijrosi orqali qanday samarali yetkazishni va muqobil tarzda sahnalashtirilgan spektaklning turli xil talqin qilinishi mumkinligini anglash;
- matn detallarni tanqidiy taqqoslash.

Eslatma: har o'quv yilida kamida dastur bo'yicha ikkita muallif chuqur o'rganiladi va bir qator mualliflarning matnlari ustida ishlanadi.

AQSh ona tili ta'limi dasturi o'quvchilarga mustaqil, bevosita va malakali o'qishni o'rgatish uchun tobora qiyinlashib boradigan

matnlarni o'qish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Matnning qiyinlik darajasini aniqlash uchun uch qismidan iborat mezon belgilanadi: sifat o'lchovi, miqdoriy o'lchov, o'quvchi va vazifa. Ushbu o'lchamlar dasturda har bir sinf darajasiga ko'ra osondan murakkabga qarab tasniflanadi.

Sifat o'lchovi mezoni to'rt elementdan iborat: matnning ma'no qatlamlari yoki maqsadi, matnning tuzilishi, tildan foydalanish va ravshanlik, o'quvchi uchun zaruriy bilimlar.

1. Matnning ma'no qatlamlari (badiiy matnlar) **yoki maqsadi** (xabar matnlari). Bitta ma'no qatlamiga ega bo'lgan badiiy matnlarni o'qish bir nechta ma'no qatlamlariga ega bo'lgan adabiy matnlarga qaraganda osonroq (kinoya, satira kabilarni o'z ichiga olgan matnlar). Xuddi shu tarzda, aniq belgilangan maqsadga ega bo'lgan xabar matnlarini pardali, yashirin yoki noaniq maqsadga ega bo'lgan xabar matnlariga qaraganda tushunish osonroq.

2. Matnning tuzilishi. Qiyinlik darajasi past bo'lgan matnlar oddiy, aniq va sodda elementlarga ega. Qiyinlik darajasi yuqori bo'lgan matnlar murakkab, yashirin va (ayniqsa, badiiy matnlarda) yirik tuzilmalardan tashkil topadi. Masalan, qiyinlik darajasi past bo'lgan badiiy matnlarda voqealar xronologik tartibda tasvirlanadi. Qiyinlik darajasi yuqori bo'lgan badiiy matnlar sujetida orqaga qaytish, oldinga siljish kabi xronologik manipulatsiyalar (amallar) qo'llanadi. Qiyinlik darajasi past bo'lgan xabar matnlarida foydalanish uchun juda oddiy yoki muhim bo'lмаган grafikalar beriladi. Yuqori darajadagi xabar matnlarida esa mustaqil ma'lumot manbasini ta'minlaydigan matn va grafikani tushunish uchun talqini zarur bo'lgan grafikalar mavjud bo'ladi.

3. Tildan foydalanish va ravshanlik. Metaforik, istehzoli, noaniq, qasddan chalg'ituvchi so'z va iboralar, arxaik yoki akademik sohaga oid lug'atlar asosida tuzilgan matnlarga qaraganda haqiqiy ma'noga ega (autentik), aniq, dolzarb va so'zlashuv uslubidagi matnlarini o'qish osonroq hisoblanadi.

4. O'quvchi uchun zaruriy bilim. O'quvchining hayotiy tajribasi ko'lami, uning madaniy/adabiy bilimlari chuqurligi va matn mazmuni/tartibi bilan tanishligi matnning tushunilishiga ta'sir qiladi. Ko'rsatilgan jihatlarda matn mazmuni bilan avval tanishgan o'quvchilar tanishmaganlarga qaraganda matnni osonroq o'qishlari va tushunishlari tasdiqlangan.

Mustaqil o'qish

Mustaqil o'qish – bu AQSh va Buyuk Britaniyaning ona tilini o'qitish dasturlarida katta e'tibor qaratiladigan fan. Ushbu

dasturlarda mustaqil o'qish qobiliyatiga o'quvchilar vaqt o'tishi bilan egallashlari kerak bo'lgan malaka sifatida qaraladi [CCSS 2010; NCE 2014].

Mustaqil o'qish o'quvchilarda o'qish zavqini oshiradi. O'quvchilarga ular uchun qiyin bo'lgan, shu bilan birga ularni rag'batlantiradigan darajadagi matnlarni tanlash imkonini beradi. O'qish uchun manbalar esa maktab kutubxonalarida o'quvchilarga taqdim etilishi kerak [Coleman, Pimentel 2012].

Katta hajmli matnlarni kulturologik nuqtayi nazardan o'qish - o'quvchilarda romanlar, pyesalar, tezislar va boshqa kengaytirilgan to'liq metrajli matnlarni o'qish qobiliyatini rivojlantirish uchun matnlarni tanlashda o'qituvchilar e'tibor beradigan yana bir masala hisoblanadi [CCSS 2010; NCE 2014; Moate 2021]. Finlandiya, AQSh va boshqa mamlakatlarda ingliz tilini ona tili sifatida o'qitish dasturlariga muvofiq, o'quvchilarga har yili kamida bir nechta sifatli yirik matn o'qitilishi kerak. Bu yerda yirik xabar matnlari va yirik badiiy matnlarni o'qish maqsadi farqlanadi. Maktabni tugatgandan so'ng oliv ma'lumot olish yoki axborot bilan bog'liq sohalarda ishlashni maqsad qilgan o'quvchilar uchun tezislar, kun tartibi, tadqiqot uchun hisobot yoki boshqa zarur maqsadlarga qaratilgan katta hajmdagi matnlarni o'qish va tushunish foydali hisoblanadi [Coleman, Pimentel 2012].

Roman va qissa kabi katta hajmli badiiy matnlarning maqsadi o'quvchiga mamlakatning madaniy qadriyatlarini singdirishdan iborat. Masalan, Finlandiya ona tilini o'qitish dasturiga turli xil matnlarni kiritish va ulardan foydalanishning maqsadi o'quvchilarga fin jamiyatining tarixiy rivojlanishi to'g'risida tushuncha berishdan iborat [Moate 2021].

Buyuk Britaniyada ona tili o'quv dasturida o'rta maktab darajasidagi matnlarning quyidagi turlari qo'llanadi: tarixiy davrlarni aks ettiradigan yuqori sifatli asarlar, shu jumladan 1914-yilgacha bo'lgan va zamонавиyl ingliz adabiyoti (Shekspirning kamida ikkita pyesasi), jahon adabiyoti romanlari, qisqa hikoyalar, she'rlar va yangi bilimlar beradigan pyesalar. Bunday matnlarni tanlash mezonlari ularning o'quvchilarga ingliz madaniyatini singdirishga qaratilganini ko'rsatadi.

XULOSA

Ona tili ta'limida o'quv dasturidagi mavzularga doir matnlarni tanlashda e'tibor qaratish zarur bo'lgan jihatlarni umumlashtirib, quyidagicha tavsiflash mumkin.

O'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mo'ljallangan matnlar taniqli mualliflarning asarlaridan tanlanishi kerak.

Turk dunyosi va boshqa mintaqalarning badiiy adabiyotiga oid asarlardan olingan matnlar faqat O'zbekiston adabiyoti bilan chegaralanib qolmasligi lozim.

Muayyan matnni tanlashda uning hajmi, tuzilishi, shuningdek, matnda ishlatilgan til birliklari va iboralarga e'tibor berish zarur.

Matn uslubida o'quvchilarning yoshi, tilga oid bilimlari, rivojlanish darajasi yoki qaysi sinfda o'qishini hisobga olish lozim. Matnlarda ta'lim maqsadlaridan tashqari iboralar bo'lmasligi kerak, agar bo'lsa, ularni olib tashlash tavsiya qilinadi.

Ta'limda haqiqiy (autentik) matnlardan foydalanish afzalroq bo'lsa-da, darslikka kiritiladigan ba'zi matn turlarida hikoya xususiyatlari va o'quvchilarning yoshi yoki rivojlanish darajasi kabi jihatlarga e'tibor qaratish lozim.

Matnlarda qisqartmalar qilingan hollarda, matnning haqiqiyligi va yaxlitligiga putur yetmasligi va saqlanishi uchun tegishli choralar ko'rinishi kerak. Ushbu mezonlarni hisobga olgan holda, matnlarni tanlashda talab qilinadigan sinchkovlik o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda qo'llanadigan matnlarning funksionalligini oshiradi.

Matnlarning ta'limiy, mazmun jihatdan, ilmiy va tarkibiy muvofiqligi matn bilan ishslash samarasiga hissa qo'shami deb hisoblanadi. O'quvchilar matnning tuzilishi haqida uni o'qishdan avval tasavvurga ega bo'lsalar, matnni tahrirlash bosqichlari va uning mazmuni haqida ma'lumot berish matnni talqin qilishni osonlashtiradi. Bundan tashqari, bu matnda mavjud axborotni oson eslab qolishga hissa qo'shami (Williams va boshq., 2004).

O'zgaruvchan sharoitlar va rivojlanayotgan texnologiyalar davrida o'quvchilarga yoqadigan matnlarni topish uchun ularni innovatsion mavzulardan izlash kerak. Biroq, shunday matnlarning qiziqarliliginи hisobga olgan holda, milliy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan va "klassik" uslubdag'i, yuqori badiiy ahamiyatga ega bo'lgan matnlar albatta darsliklarga kiritilishi zarur. Ushbu jihatlarni matnni tanlash mezonlariga rioya qilib amalga oshiriladigan matnni aniqlash jarayonida ham hisobga olish tavsiya etiladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilish mumkinki, o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda matnni tanlashga jiddiy yondashish zarur. Shu bilan birga, o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda nutqiy faoliyatning barcha turlarini baravar va

o'zaro bog'liq ravishda o'rgatish muhim. O'qib tushunishga o'rgatish og'zaki nutq ko'nikmalar bilan uzviy bog'liqligini unutmagan holda, bu borada quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. O'qib tushunish – nutqiy faoliyatning turlaridan biri sifatida murakkab psixofiziologik jarayon bo'lib, muayyan lingistik poydevor, ya'ni fonetik va leksik-grammatik bilimlar asosida amalga oshiriladi.

2. O'qib tushunish ko'nikmasining 2 jihatni mavjud: yozma xabarni qabul qilishga tayyorlaydigan o'qish texnikasini egallash hamda axborotni sodir bo'lgan nutqiy faoliyat mahsuli sifatida anglash. Bunga erishish uchun tizimli va maqsadga qaratilgan maxsus mashqlarni bajarish kerak.

3. O'qib tushunish malakasini tekshirish matnning mazmunini tushunishga qaratilishi zarur.

4. Nutqiy faoliyatning barcha turlarini o'zaro bog'liq tarzda rivojlantirishning samarali bo'lishi uchun o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish boshqa ko'nikmalar bilan, avvalambor, og'zaki nutq ko'nikmasi bilan baravar amalga oshirilishi kerak.

Adabiyotlar

- Coleman, D.; Pimentel, S. 2012. Revised publishers' criteria for the Common Core State Standards in English language arts and literacy, grades 3–12 Achieve. https://education.alaska.gov/AKStandards/ela/PublishersCriteria_Literacy_3-12.pdf
- CCSS. 2010. Common Core State Standards for English Language Arts & Literacy in History/ Social Studies, Science, and Technical Subjects. <http://www.corestandards.org/ELA-Literacy/>
- CCSS-A-A. 2010. Appendix A Common Core State Standards for English Language Arts & Literacy in History/Social Studies, Science, and Technical Subjects. http://www.corestandards.org/assets/Appendix_A.pdf
- Moate, J. 2021. Seeking understanding of the textbook-based character of Finnish education. Journal of Education for Teaching, 47 (3), 353-365. <https://doi.org/10.1080/02607476.2021.1896341>
- NCE. 2014. The national curriculum in England Key Stages 3 and 4 Framework. <https://www.gov.uk/national-curriculum>
- NCE-A2. 2014. English Appendix 2: Vocabulary, Grammar and Punctuation. <https://www.gov.uk/national-curriculum>
- Pressley, M.; Afflerbach, P. 1995. Verbal protocols of reading: The nature of constructively responsive reading. Hillsdale, NJ: Erlbaum.
- Pressley, M. 2002. Metacognition and self-regulated comprehension. What research has to say about reading instruction, 3, 291-309.
- Серова, Т. С. 2009. Обучение гибкому иноязычному профессиональному ориентированному чтению в условиях деловой межкультурной коммуникации. Пермь: Изд-во Пермского

гос. тех. ун-та. – 242 с.

- Tainio, L. 2012. Skriftpraktiker hos barn och unga. Lehti-Eklund, H., Slotte-Lüttge, A., Silén, B.
- Шарапова, С. И. 2009. Критерии отбора содержательно-текстовой базы для обучения студентов неязыкового вуза профессионально ориентированному чтению на иностранном языке // Известия РСПУ им. А.И. Герцена. – Выпуск 102. – С. 319-322.
- Williams, J. P.; Hall, K. M.; Lauer, K. D. 2004. Teaching expository text structure to young at-risk learners: Building the basics of comprehension instruction. *Exceptionality*, 12 (3), 129-144.

PRINCIPLES OF SELECTION OF TEXTS FOR THE DEVELOPMENT OF READING COMPREHENSION SKILLS IN NATIVE LANGUAGE EDUCATION

Gulshan A. Asilova¹

Fatma Açık²

Abstract

